



VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARNI OLDINI OLISHDA YAKKA TARTIBDAGI PROFILAKTIKANI AHAMIYATI

Vaxidov A'zamjon Saidjonovich.

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Kasbiy
tayyorgarlik fakulteti Maxsus fanlar sikli boshlig'i, podpolkovnik

tel: +99894-608-46-35.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13375863>

ARTICLE INFO

Received: 14th August 2024

Accepted: 15th August 2024

Published: 18th August 2024

KEYWORDS

ABSTRACT

O'zbekistonda mustaqillik qo'lga kiritilgan dastlabki kunlardan boshlab jamiyatda barqarorlikni ta'minlash, fuqarolarning tinchligi va osoyishtaligini asrash ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Ushbu vazifalarni bajaruvchi davlat organlari tizimida xususan uning profilaktika xizmati huquqiy maqomi, o'z faoliyatini keng jamoatchilik bilan uzviy hamkorlikda amalga oshirishi jihatidan alohida muhim o'ringa egadir.

Bugungi kunda yoshlarimizni har tomonlama barkamol inson bo'lishi uchun asosiy qomusimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida: "Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi" deya ta'kidlangan.¹ Voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbuzarliklarning sodir etilayotgani sababi bo'sh vaqtlarini nazoratsiz qoldirish yoki boshqa ishlar shug'ullanayotgan yoshlarga e'tibor bermaslik oqibatida kelib chiqmoqda.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarni oldini olish- huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda yakka tartibdagi profilaktika bilan bevosita bog'liqdir. Huquqiy manbalarga ko'ra, "yakka tartibdagi profilaktika deganda - huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni aniqlash, ularning hisobini yuritish va ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga doir faoliyati"² tushuniladi.

Bundan tashqari 2010 yil 29 sentyabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunga ko'ra "voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash

¹ 2023 yil 30 aprel Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Kanstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/6445145>

² O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi 371-son qonunning 28-moddasi.

hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimidir"³. deb ta'rif berilgan Yuqorida ko'rsatilgan ta'riflarga asoslanib, davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarni oldini olishning bir qator bosqichlarini aniqlashimiz mumkin. Jumladan:

- ijtimoiy xavfli axvolda bo'lgan oilalar va voyaga yetmaganlarni aniqlash;
- voyaga yetmaganlarning o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda profilaktik ta'sir etish usullarini aniqlash;
- ta'sir natijalarini hisobga olish;
- erishilgan ijobiy natijalarga ko'ra profilaktik ta'sir choralarni to'xtatish.

Bunda, shuni e'tiborga olish kerakki, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik yoki g'ayri-ijtimoiy xatti-harakatlarni oldini olish uchun qo'llaniladigan ta'sir choralari **qisqa muddatli** yoki **uzoq muddatli** bo'lishi mumkin.

Yakka tartibdagi profilaktika ishlarning usullari va shakllaridan foydalanish - voyaga yetmagan tomonidan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilgan vaqtdan boshlab shuningdek, voyaga yetmagan shaxsning og'ir vaziyatga tushib qolgan paytdan boshlanadi. Yuqorida keltirilgan voyaga yetmaganlar bilan yakka tartibdagi profilaktik ishlarni olib borishda yordam beradigan holatlarni tahliliga ko'ra, aksariyat salbiy omillarni kelib chiqishi asosan voyaga yetmagan shaxs tarbiyalangan oiladagi muxitda vujudga kelganligini hisobga olishimiz zarur. Ko'pincha jamiyatdagi oilalarda alkogolli mahsulotlarini, giyohvandlik vositalarini yoki boshqa psixotrop moddalarini iste'mol qiladigan, nosog'lom turmush tarzini yuritadigan ota-onalar bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qoida tariqasida, bunday oilalar kam daromad darajasi bilan ajralib turadi, ulardagi bolalar o'zini ijtimoiy axvolini past baholaydi, ijtimoiy normalarni o'zlashtirish qobiliyati pasayadi, bu esa ijtimoiy muxitga salbiy ta'sir qilib, voyaga yetmaganlar tomonidan noqonuniy xatti-harakatlarni sodir qilish xavfini oshishiga sabab bo'ladi.

Bunday salbiy xolatlarni oldini olishda ma'muriy-huquqiy majburlov choralari qo'llash, huquqbuzarliklar profilaktikasining turlari bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, voyaga yetmagan huquqbuzarlar bilan yakka tartibdagi profilaktik ishlarni olib borishda huquqbuzarliklar profilaktikasi sub'ektlari huquqbuzarliklarni oldini olish va barvaqt profilaktikasini amalga oshirish maqsadida ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmagan yoki oilalar, nazoratsiz va qarovsiz qolgan, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir qilgan voyaga yetmagan shaxs bilan yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Masalan, yakka tartibdagi suhbat, rasmiy ogohlantirish, profilaktik hisobga olish va boshqalarni qo'llaydi. Shuningdek, farzandini tarbiyalash va o'qitish majburiyatini bajarmagan, uni nazoratsiz va qarovsiz qoldirgan ota-onalarga nisbatan ma'muriy-huquqiy majburlov choralari qo'llaniladi. O'rganilayotgan sohada ma'muriy majburlash usullaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyati shundaki, voyaga yetmaganlarga nisbatan ham sodir etilgan huquqbuzarliklarning oldini olish va to'xtatish uchun ta'sir ob'ekti ko'p hollarda voyaga yetmaganlarning o'zi emas, balki ularni o'rab turgan shaxslar bo'lishi kerak.

Bundan tashqari voyaga yetmaganlarga nisbatan yakka tartibdagi profilaktika ishlarini amalga oshirishda ishontirish, rag'batlantirish va zarur bo'lsa majburlash usullaridan foydalanish huquqbuzarliklar profilaktikasi chora-tadbirlarini qo'llashda yakka tartibdagi profilaktikaning ajralmas qismi hisoblanadi.

Mazkur profilaktik usullarning tarifiga e'tibor bersak, jumladan:

Ishontirish – profilaktika qilinuvchiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning asosiy usuli. Tarbiyalash ishontirishdir, ishontirish ish (harakat yoki shaxsiy namuna) va so'z orqali amalga oshiriladi.

³ O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentyabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunning 3-moddasi.

Ishontirish usuli sof tarbiyaviy xususiyatga ega bo'lib, ular profilaktika qilinayotgan shaxsning huquqlarini aslo cheklamaydi;

Rag'batlantirish - shaxsning ijobiy qarashlari, xizmatlarini takomillashtirish va mustahkamlashga xizmat qiladi. Rag'batlantirish moddiy-ma'naviy asoslarga ega usul;

Majburlash - profilaktika qilinuvchiga tarbiyaviy ta'sirning yordamchi usuli. U faqat boshqa usullar samara bermaganida qo'llaniladigan usul.⁴

Shunday qilib, huquqbuzarliklar profilaktikasi sub'ektlari tomonidan, voyaga yetmaganlar bilan yakka tartibdagi profilaktika ishlarini olib borish tartibini quyidagicha tavsiflashimiz mumkin:

- huquqbuzarlik yoki boshqa ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan voyaga yetmaganlarga qonunda ko'rsatilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirdagina qo'llaniladi;

- u faqat qonunda ko'rsatilgan profilaktikaning ayrim sub'ektlari tomonidan qo'llaniladi;

O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunning 35-moddasida ko'rsatilgan asoslar mavjud bo'lganda profilaktik hisobga olinadi;

- bu, birinchi navbatda, voyaga yetmaganning qilgan xatti-harakati va huquqbuzarliklar profilaktikasi sub'ektlari tomonidan unga nisbatan qo'llaniladigan yakka tartibdagi profilaktika chora-tadbirlari bilan bog'liq.

Shuni ta'kidlash kerakki, huquqbuzarliklar profilaktikasining sub'ektlari, ya'ni ta'lim tashkilotlari, ichki ishlar organlari, milliy gvardiya va boshqalar tomonidan olib boriladigan yakka tartibdagi profilaktika ishlarining maqsadi, voyaga yetmagan huquqbuzarning takroriy yoki qayta huquqbuzarliklarni oldini olish uchun uning ongiga ta'sir qilish, qonunga bo'ysunadigan xatti-harakatlarni rivojlantirishdir. Shu bilan birga, voyaga yetmagan huquqbuzarlarni, ularni tarbiyasiga e'tibor bermaydigan va o'z majburiyatlarini bajarmaydigan ota-onalar bilan yakka tartibdagi profilaktika ishlarini qo'llashda ta'sir etish usullari va vositalaridan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin. Bunday vosita va usullar sifatida turli xil ijtimoiy foydali faoliyat turlari, ommaviy axborot vositalari, ishontirish usullari, rag'batlantirish va majburlov choralari shuningdek, boshqa ta'sir choralari bo'lishi mumkin.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan ishontirish usulidan foydalanishga asoslangan tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda turli tashkilotlar, pedagogik va ta'lim jamoalari, madaniyat muassasalari, ijodiy ziyolilar, sport jamiyatlari va yosh avlodni tarbiyalash bilan professional yoki ijtimoiy funksiyalariga muvofiq shug'ullanadigan barcha sub'ektlarning faol ishtirokini ta'minlash juda muhimdir. Umuman olganda bunday ishlarni tashkil etish, xususan voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan ishontirish usulining samaradorligi, ularning kattalarga nisbatan ko'proq taqlid etishi va ularning ijtimoiy mavqeining oshirishga qaratilgan bo'lib jamiyatda o'rnatilgan qonun-qoidalarga rioya etishiga va to'g'ri xulq-atvor normalarini ijobiy idrok etish uchun qulay sharoit yaratadi. Voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarni oldini olishda maktab, kollej va litsey o'quvchilarida huquqiy ongini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha huquqiy tarbiyaviy ishlarni tashkil etish muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, ishontirish hamda huquqiy ta'sir usuli o'z vaqtida va har tomonlama qo'llanilgan taqdirda, voyaga yetmaganlar orasida axloqiy muhitni shakllantirishda hal qiluvchi muxim rol o'ynaydi, bunda voyaga yetmagan o'z harakatlarini nazorat qiladi va huquqiy normalarning ko'rsatmalariga rioya etadi shuningdek, axloqiy va psixologik jihatdan huquqiy himoyaga tayyorlanadi.

Voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar

⁴ Xo'jaqulov S. B. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati: O'quv qo'llanma / – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – 148 b.

profilaktikasi to'g'risida"gi qonunga asoslangan holda bevosita mutasaddi organlarining eng muhim vazifalari belgilangan bo'lib ular quyidagilar:

- voyaga yetmaganlar nazoratsizligi, qarovsizligi, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, ularga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;
- voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash;
- voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirish;
- ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish;
- voyaga yetmaganlarni huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarni sodir qilishga jalb etish hollarini aniqlash va ularga barham berish.⁵

Huquqbuzarliklar profilaktikasi sub'ektlari tomonidan profilaktik vositalar va usullardan foydalanish samaradorligiga faqat voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar va boshqa g'ayriijtimoiy harakatlarning oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali erishish mumkin. Yakka tartibdagi profilaktika ishlari davomida huquqbuzarliklar profilaktikasi sub'ektlari voyaga yetmagan shaxsning xususiyatlarini, shuningdek u tomonidan sodir etilgan salbiy harakatni hisobga olishlari, uni sodir etish sabablari va imkon bergan shart-sharoitlarini o'rganishlari kerak.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, voyaga yetmaganlar bilan yakka tartibdagi profilaktik ishlarni olib borish turini huquqbuzarliklar profilaktikasi sub'ektlari tomonidan qonun bilan belgilangan vakolatlari asosida boshqa davlat organlari bilan hamkorlikda amalga oshiradilar. Ushbu faoliyat qat'iy protsessual tartibda qo'llanilishi, voyaga yetmagan huquqbuzarlarni tuzatish va jamiyatda o'rnatilgan qonunlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash doirasida uzoq muddatga qaratilgan bo'ladi. Bu jarayonlarni monitoring qilib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Sababi monitoring davomida yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar o'z vaqtida aniqlanib, ularni bartaraf etish yuzasidan tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyati yaratiladi. Ushbu profilaktik chora-tadbirlarni qo'llashda huquqbuzarliklar profilaktikasi sub'ektlari huquqbuzarliklarni sodir etilishining oldini olish uchun turli xil ta'sir choralarni qo'llashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2023 yil 30 aprel Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Kanstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/6445145>;
2. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonun;
3. O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentyabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonun;
4. Xo'jaqulov S. B. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati: O'quv qo'llanma / – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – 148 b.

⁵ O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentyabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunning 4-moddasi.